

## МАҲКУМЛАРНИ ОЗОДЛИККА ТАЙЁРЛАШДА ТУРКУМ ТАРБИЯЧИЛАРИ ВА ТУРКУМ ЖАМОА КЕНГАШИ ФАОЛИЯТИ

IV Akademiyasi 327-guruh  
kursanti N.J.Usipbekov

Davlatimiz mustaqilligiga erishganidan so'ng amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini erkinlashtirish va demokratlashtirishga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga keng yo'l ochildi.

Shu o'rinda, muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev "Aziz do'stlar! Biz "inson qadri, uning huquq va manfaatlarini – oliy qadriyat", degan tamoyildan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz aholisi uchun munosib turmush sharoitini yaratishni Yangi O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilaganmiz<sup>1</sup> deb ta'kidlab o'tganligi, bugungi kunda jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarga ta'limga va kasb hunarga o'rgatib, ularga maxsus sertifikatlar berilib kelayotganligi bejiz emas albatta, buning natijasida jazoni ijro etish muassasalaridan jazo muddatini o'tab bo'lganidan so'ng ozodlikka chiqqan mahkumlar biror bir kasb egasi sifatida o'z turmush tarzini to'g'ri yo'lga soladi degan, ya'ni ijtimoiy hayotga o'z hunari bilan kirib borishi kabi chuqur ma'noli so'zlar ishlatilgan.

Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratilib kelinmoqda.

Hozirgi kunda jazoni ijro etish muassasalarida ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar sonining yildan-yilga kamayib borishi ijobiy holat bo'lsa-da, biroq maxsus kontingent (mahkumlar) bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tubdan, zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqish va uni yangicha tashkil qilishni taqozo qilib kelmoqda.

1997 yil 25 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida qonun ustuvorligi va javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida tarbiyalash va axloqan tuzatish uchun huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Mamlakatda jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni axloqan tuzatish bo'yicha tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, jinoyat-ijroiya amaliyotini o'rganish natijalari mahkumlarning huquqlargi rioya etish, ularning sha'ni va qadr-qimmatining hurmat qilinishini ta'minlash, kelgusida jamiyatga ijtimoiy moslashtirish uchun axloqan tarbiyalash va mehnatga o'rgatishning shaffof va yanada samarali huquqiy mexanizmlarin joriy etish zarurligidan dalolat bermoqda.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг Кичик ёшдаги болаларни тарбиялаш ва таълим бериш бўйича иккинчи Бутунжаҳон конференцияси очилиш маросимидаги нутқи 15.11.2022йил

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining vazifasi jazo ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Jazoni ijro etish muassalarida Tarbiyaviy ishlar mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, mahkumlarda qonun talablariga va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etishga, shuningdek, bilim va madaniy saviyasini oshirishga intilishni shakllantirishga qaratilgan.

Bu borada musulmon olamining "Hujjat ul-Islom" islom olamining hujjati nomi bilan tanilgan buyuk alloma Imom G'azzoliy "Tarbiyaning lug'oviy ma'nosi-o'stirish va rivojlantirishdir. Tarbiya insonni moddiy va ma'naviy kamolotga eltuvchi nizom. Nizom uslublari asoslari o'zgarsa, maqsad-muddalari va manbalari o'zgarsa tarbiya ham yangicha ko'inish kasb etadi, insonga nima naqsh solinsa va nimaga moyil qilinsa shu narsaga moyil bo'laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o'stirsa shuning ustida o'saveradi dunyo va oxiratda saodatli bo'ladi. Ta'lim tarbiya berganlar savobiga sherik bo'ladi. Agar yomonlikka undalsa va hayvonsifat bo'sh qo'yilsa, yomonlikka uchraydi, halok bo'ladi, unga qarab turgan kishi ham gunohkor bo'ladi!" deya ta'kidlab o'tganlar.

O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 15 fevraldagi O'RQ-817-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi<sup>2</sup> va 2023 yil 23 martdagi O'RQ-825-son "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Jinoyat-ijroiya kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi<sup>3</sup> qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 aprel kunidagi PF-6218-son "Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>4</sup> Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 15 avgustdagi 445-son "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti faoliyatini yanada samarali tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>5</sup> qaroriga muvofiq jazoni ijro etish koloniyalarida jazo muddatini o'tayotgan shaxslar bilan tarbiyaviy-profilaktik ishlar hamda individual tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi tomonidan 2023 yil 30 mayda "Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan tarbiyaviy va ijtimoiy-

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига маҳкумларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишга қаратилган ўзгариш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги 2023 йил 15 февралдаги ЎРҚ-817-сон қонуни <https://lex.uz/docs/6384468> (Электрон манбаага мурожаат қилинган сана 10.12.2023 йил)

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ҳамда Жиноят-ижроия кодексларига ўзгариш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги 2023 йил 23 мартдаги ЎРҚ-825-сон қонуни. <https://lex.uz/docs/6412097> (Электрон манбаага мурожаат қилинган сана 10.12.2023 йил)

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Миллий қонунчилик базасини комплекс тизимлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2021 йил 30 апрелдаги ПФ-6218-сон фармони <https://lex.uz/docs/5400414> (Электрон манбаага мурожаат қилинган сана 10.12.2023 йил)

<sup>5</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Жазони ижро этиш Департаменти фаолиятини янада самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 2022 йил 15 август куни қабул қилинган 445-сон қарори <https://lex.uz/> (Электрон манбаага мурожаат қилинган сана 10.12.2023 йил)

psixologik ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risidagi buyruqni tasdiqlash haqida<sup>6</sup>gi 284-sonli buyrug'i qabul qilindi.

Mazkur Buyruqning Yo'riqnomasida Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik ishlarni tashkil etish tartibi belgilandi.

Jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar ularni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri bo'lib, mahkumlarda qonun talablariga va jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalariga rioya etishga, shuningdek, bilim va madaniy saviyasini oshirishga intilishni shakllantirishga qaratilgan.

Mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash - jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning jazoni o'tash muddati tugashiga uzog'i bilan uch oy qolganda uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash, mehnat va turmushda o'rnashishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, uning muassasadan ozod bo'lgandan keyingi huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish maqsadida mahkum bilan tarbiyaviy ish olib boradi.

Turkum tarbiyachilar kengashi doimiy harakatdagi maslahatchi tashkilot bo'lib, katta inspektor-ijtimoiy xodimga mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda yordam beradi.

Kengash o'z faoliyatini oylik reja asosida olib boradi.

Turkum tarbiyachilar kengashi bir yil muddatga tuziladi va uning tarkibi quyidagilardan iborat bo'ladi:

turkum tarbiyachilar kengashi raisi – katta inspektor-ijtimoiy xodim;

turkum tarbiyachilar kengashi a'zolari – JIEM sohaviy xizmat xodimlari, harbiy nazoratchilar (turkum tarbiyachilar kengashi yig'ilishiga harbiy nazoratchilar ishtirokini ta'minlashga harbiy qism-Shtab boshlig'i mas'ul hisoblanadi) tayinlanadi.

Turkum tarbiyachilar kengashi JIEM boshlig'ining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Turkum tarbiyachilar kengashi yig'ilish bayonnomasi qonun hujjatlarida keltirilgan Turkum tarbiyachilar kengashi yig'ilishlari bayonnomalarini qayd qilish daftariga rasmiylashtiriladi, turkum tarbiyachilar kengashi raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi.

Yig'ilishda kengash a'zolarining ellik foizdan ortig'i qatnashgandagina u huquqiy kuchga ega bo'ladi.

Mahkumlarni ozodlikka tarbiyalashda muassa xodimlarining o'rnini mavjud bo'lib, ular quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar;

Turkum tarbiyachilari kengashi a'zolari koloniyaga (sudning hukmi bilan, probatsiya va manzil-koloniyalaridan qaytarilgan. qayta jinoyat sodir etganligi) kelgan har bir mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildi bilan to'liq tanishgan holda sohaviy xizmatlar o'zining yo'nalishi bo'yicha to'liq ma'lumotga (sodir etgan jinoyatining to'liq

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirining 2023 yil "30" maydagi "Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 284-son buyrug'i <https://lex.uz/> (Электрон манбаага мурожаат қилинган сана 10.12.2023 йил)

tafsiloti, hulqi, oilaviy ahvoli, jinoiy sheriklari, kasalligi va ruhiy holati, koloniyalarda jazoni o'tash davomidagi tartibot talablariga amal qilganligi) ega bo'lishi lozim.

Turkum tarbiyachilari kengashi a'zolari mahkum bilan o'tkazilayotgan suhbatlarda yoki uning muammolarini hal etishda hissiyotga berilmasdan (mahkumlarni bir-biridan ajratmasdan yoki boshqasini ustun qo'ymasdan) adolat va qat'iyatlik bilan qonun doirasida chetga chiqmasdan hal etish choralarini ko'radi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev.Sh.M, "Tanqidiy tahlil, qa'tiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" T-2017y.

2. Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига маҳкумларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишга қаратилган ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги 2023 йил 15 февралдаги ЎРҚ-817-сон қонуни <https://lex.uz/docs/6384468>

3. Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикасининг Жиноят ҳамда Жиноят-ижроия кодексларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида"ги 2023 йил 23 мартдаги ЎРҚ-825-сон қонуни. <https://lex.uz/docs/6412097>

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Миллий қонунчилик базасини комплекс тизимлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 2021 йил 30 апрелдаги ПФ-6218-сон фармони <https://lex.uz/docs/5400414>

5. 1 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳузуридаги Жазони ижро этиш Департаменти фаолиятини янада самарали ташкил этиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги 2022 йил 15 август куни қабул қилинган 445-сон қарори <https://lex.uz/>

6. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirining 2023 yil "30" maydagi "Ichki ishlar vazirligining jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan mahkumlar bilan tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik ishlarni tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 284-son buyrug'i <https://lex.uz/>